

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 41 497,9 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142,5 foizni tashkil etdi. Ularning 34,8 foizi yoki 14 436,4 mlrd. so`m korxonalar, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, o`zlashtirilgan boshqa mablag`lar hisobidan 65,2 foizi yoki 27 061,5 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 44,1 foiz punktga ko'payib, 8 068,4 mlrd. so`mni tashkil etdi.

**Jami asosiy kapitalga investitsiyalar
hajmi:
41 497,9 mlrd. so`m**

**O`shish
sur`ati:
142,5 %**



**Markazlashgan:
8 068,4 mlrd. so`m**

**Markazlashmagan:
33 429,5 mlrd. so`m**

Asosiy kapitalga investitsiyalar




Asosiy kapitalga investitsiyalar

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 38,0 foiz punktga ko'payib, 80,6 foizni yoki 33 429,5 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag`lari 12 710,8 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 30,6 foizni tashkil etdi. Aholi mablag`lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,2 foizni yoki 1 725,6 mlrd. so`m o`zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)



Asosiy kapitalga investitsiyalar

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 4 900,5 mlrd. so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 91,3 % yetdi), to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 14 092,6 mlrd. so`m (225,5 foiz punktiga ko`payish), O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 3 903,3 (688,8 foiz), Respublika byudjeti 2 776,6 mlrd. so`m (32,6 foiz punktiga ko`payish), Davlatning maqsadli jamg`armalari 75,2 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 0,2 foiz) hamda tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hisobidan esa 1 313,5 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 3,2 foiz) asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan ulushi,%da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	41497,9	142,5	100
Respublika byudjeti	2776,6	109,5	6,7
Davlat maqsadli jamg'armalari	75,2	190,4	0,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1313,5	76,2	3,2
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	3903,1	688,8	9,4
Korxonalar mablag'lari	12710,8	98,4	30,5
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	4900,5	91,3	11,8
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	14092,6	350,1	34,0
Aholi mablag'lari	1725,6	112,6	4,2


Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 168,0 foiz ko'payish Sirg'ali tumanida kuzatildi. Bu asosan "O'zshaharqurilishinvest" korxonasi tomonidan qurilayotgan arzon uylar bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq. Mirobod tumanida ham 167,7 foiz o'sish kuzatilib, bunday natijaga erishilishiga "METROPOLITEN" unitar korxonasi tomonidan ushbu hududda qurilayotgan yangi metro liniyalarini keltirish mumkin. Yakkasaroy tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 165,2 foiz o'sishi, asosan ushbu hududdagi zamonaviy uylarning qurilishi bilan bog'liq.

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



- Bektemir ● Mirzo Ulug'bek ● Mirobod ● Olmazor ● Sirg'ali
- Uchtepa ● Chilonzor ● Shayxontohur ● Yunusobod ● Yakkasaroy
- Yashnobod

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`zlashtirilgan hajmi bo`yicha hududlar kesimida Shayxontohur tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,3 foizi o`zlashtirildi.


Shuningdek, Mirobod tumanining Toshkent shahri bo`yicha investitsiyalar hajmidagi ulushi 15,2 foizni, Sirg'ali tumani 12,0 foizni tashkil etmoqda. Chilonzor va Yunusobod tumanlarida ushbu ko`rsatkich mos ravishda 11,6 va 10,7 foizni tashkil etdi.

Bektemir hamda Uchtepa tumanlarida investitsiyalar eng kam o`zlashtirilgan bo`lib, Toshkent shahridagi ulushi 1,7 foiz va 2,7 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

42,4 %

54,5 %




- Qurilish-montaj ishlari
- Mashina, uskuna, inventar
- Boshqalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha 17 602,3 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 22 602,6 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga 1 293,0 mlrd. so'm o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (davomi)

Tumanlar kesimida texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 19 826,9 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 47,8 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 9 386,2 mlrd. so`m bo'ldi va Toshkent shaharda jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 22,6 foizini tashkil etdi. Qolgan 29,6 foiz, ya'ni 12 284,8 mlrd. so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.


Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (tumanlar kesmida)



Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Chilonzor tumanida kuzatilib, 69,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, Sirg'ali tumanida 66.6 foiz, Yakkasaroy tumanida 66,4 foiz va Yashnobod tumanida 48,0 foizni ko'rsatdi. Ushbu ko`rsatkichning eng past darajasi Olmazor tumanida 28,3 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 862,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 18,9 foizi o'zlashtirilgan. Undan keyingi o'rinda boshqa faoliyat turlari 6 639,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,2 foizi o'zlashtirildi.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan uchta faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 1 310,4 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,2 foiz);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish 873,6 mlrd. so'm (2,1 foiz);
- rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish 501,0 mlrd. so'm (1,2 foiz).

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan-to'g'ri investitsiya va xorijiy kafolatlanmagan kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
Toshkent sh.	17 995,7	11 024,3	6 971,4	9 799,7	6 731,4	3 068,3
tumanlar:						
Bektemir	140,7	120,1	20,6	79,3	58,7	20,6
Mirzo Ulug'bek	1 061,5	967,2	94,3	362,6	348,0	14,6
Mirobod	2 512,9	762,9	1 750,0	270,5	241,8	28,7
Olmazor	984,8	882,6	102,2	429,5	412,1	17,4
Sirg'ali	244,1	221,7	22,4	157,3	135,0	22,2
Uchtepa	203,9	174,2	29,7	104,9	76,3	28,5
Chilonzor	2 987,3	1 787,6	1 199,5	1 180,8	153,0	1 027,9
Shayxontohur	5 893,4	3 262,6	2 630,7	4 216,9	2 795,9	1 421,0
Yunusobod	1 601,6	557,8	1 043,9	853,6	400,1	453,5
Yakkasaroy	1 730,8	1 718,8	12,1	1 727,8	1 716,3	11,5
Yashnobod	634,7	568,8	66,0	416,5	394,2	22,3



Obyektlarni ishga tushirish

Toshkent shahri bo'yicha ishga tushirilgan uyojlar, ming kv. m.



- Bektemir
- Mirzo Ulug'bek
- Mirobod
- Olmazor
- Sirg'ali
- Uchtepa
- Chilonzor
- Shayxontohur
- Yunusobod
- Yakkasaroy
- Yashnobod



Obyektlarni ishga tushirish (davomi)

Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 1 465 ming kv. m, boʻlgan 2945 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida koʻradigan boʻlsak, eng koʻp qismi Sirgʻali tumanida ishga tushirilgan boʻlib 694,4 ming kv. m va u shahar boʻyicha ishga tushirilgan jami

umumiy maydonning 47,4 foizini tashkil etdi. Keyingi oʻrinlarni Yashnobod va Yunusobod tumanlari egallagan boʻlib, shahar boʻyicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 12,0 foiz va 9,0 foizini tashkil etdi.



**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: Sh. Samiyev

Aloqa telefoni: (071) 230-88-18